

BOSHLANG'ICH SINFLARDA PIRLS PISA XALQARO BAHOLASH DASTURLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Aminova Dilorom Muxammadovna

Toshkent shahar Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarini PIRLS, PISA xalqaro baholash tizimiga tayyorlash masalalari haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar ham ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, PISA, hikoya, o'qituvchi, o'quvchi, test, ota-ona, shaxmat.

Yurtimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida iqtisodiyotdagi o'sish ko'rsatkichlari va erishilayotgan yutuqlar barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassislariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu birinchi bo'lib ta'limdagi o'qitish tizimidagi yangiliklarni maktabdan boshlash zarurligini anglatadi. "Yangi O'zbekiston maktab ostanasidan boshlanadi", deb prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev haqli ravishda aytib o'tdilar. Chunki yosh avlodni zamon talabi darajasidagi bilimi mutaxassislar qilib tarbiyalashda maktab, litsey, texnikum va Oliy o'quv yurtlarida ta'lim sifatini yanada yaxshilashni talab etmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarimizning darslarga qiziqishi-e'tiborini oshirishni va o'qituvchilarning har tomonlama ta'lim ularning tarbiyasiga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. O'quvchi yoshlarni fanlar kesimida o'zlashtirayotgan bilim, ko'nikmalarini va malakalarini rivojlangan horijiy mamlakatlar o'quvchilari bilimi bilan solishtirib o'zimizning yutuq va kamchiliklarimizni aniqlab borishda Xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish ko'zda tutilgan. Shu o'rinda pisa dasturini ahamiyati muhim sanaladi.

PISA-o'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur bo'lib (PISA inglizcha - Programme for International Student Assessment) u turli davlatlarda o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dasturdir. Mazkur dastur 2000 yildan beri turli mamlakatlarda o'tkazib kelinayotgan b'lib, har 3 yilda 15 yoshli o'quvchilarning o'qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilimni tekshiradi. Monitoring jarayoni uchun nazorat (testlar, yozma ishlar, so'rovnoma, og'zaki savollar, audio (video) materiallarini tayyorlashda ularning umumiy hajmiga nisbatan 20 % gacha o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariga mos keladigan, o'quv dasturi va darsliklardan tashqari, xalqaro tajribalarda (PISA, TIMSS va h.k.) qo'llanilgan materiallardan foydalanish mumkinligi pisa dasturining 4- bandida

belgilab qo'yilgan. Ta'lim sifatini baholash bizga nima beradi; jumladan tadqiqotlardan olingan natijalar mamlakatdagi ta'lim sifati va uning xalqaro standartlarni hisobga olgan holda egallagan o'rni to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi, pedagog kadrlar tayyorlash va ularni malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish hamda mutaxarsliklarni yangi avlodini yaratishda qo'llaniladi.

matnni o'qish va tushunib ishlash	5-yilda bir marta	badiiy tajriba o'rtirish	matematika va tabiiy fan	4-8 sinf o'quvchilar o'rtasida	2023-yilda O'zbekistonda o'tkaziladi	15-16 yoshlilar o'rtasida	3-yilda bir marta	2000-yilda birinchi marta o'tkazilgan
4-sinflar o'rtasida	RIRLS	1000 ta so'zdan iborat	IEA ga davlatga aloqador bo'lmagan tashkilot	TIMSS	STEAM bilan bog'lanadi	o'qish, matematika, tabiiy fan	PISA	ochiq, yopiq anketa, test
diqqatni jamlash, aniq ma'lumot topish	matndan tashqariga chiqa olish	yozma nutq shakllarini idrok etish	4-yilda bir marta o'tkaziladi	geometrik figura, kasrlar	test usulida olinadi	5 ta yo'lanish o'qish, komp, matem, moliyaviy, tabiiy	Singapur 1- o'rinda	testga 3soat beriladi
o'qituvchi rahbarlar uchun	pedagoglarni ijtimoiy mavqeiini oshirish	pedagog, mutaxassisligiga iqtidorli yosh. tan	PIRLS	TIMSS	PISA	7-sinflar o'rtasida	1964-yil birinchi marta o'tkazildi	Germaniyaning pedagog. instit
moderator o'qituvchilarni tanlash	TALIS	pedagog, kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish	TALIS	Xalqaro baholash dasturlari	FIMS	mashhur olim Y.B. COROLL	FIMS	(six subjects survey) bilan bog'langan.
uzluksiz malaka oshirishni takomillashtirish	ta'limga bevosita ta'sir etadigan omillarni aniqlash	mamlakatlararo hamkorlikni yo'lga qo'yish	EGRA	EGMA	PIAAC	21-yil davomida qo'llanilgan	Pisa va timssning ilk ko'rinishi	6 ta fanga siyosiy ta'lim xam qo'shib baholangan.
o'qish	2-3-sinflar o'rtasida	70 ta so'z 5 ta savol	matematika	2-6 sinflar o'rtasida	o'zlashtirish, bo'sh liqlarni aniqlash	katta yoshdagilarni kompetensiyalarini baholovchi xalq. das	2010-yilda boshlangan	so'rovnomasosida
12-nafar o'quvchi qatnashadi	EGRA	harfni, so'zni tanish, o'qish tezligi	12-nafar o'quvchi	EGMA	sonni tanish, topshiriqlardagi muomalami tushunish	TALIS ning birinchi bosqichi	PIAAC	iqtisodiy hamkorlik tashkiloti
shu fanni yaxshi o'zlashtirish	O'zbek. 70 maktab qatnashdi	test olishda 5 ta tadqiqotchi qatnashadi	Aqshning USAID	PISA, TIMSS ga o'tish dastlabgi bos	7 xil tilda imtixon topshirish amaliy sinash	taraqqiyot tashkilot	kattalar ko'nikmalarini shakillantirish	rahbar va pedagog katta yordam bergan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga muvofiq 2030 yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan. Shuningdek, konseptsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish yo'lida PIRLS tadqiqotida muvaffaqiyatli ishtirok etish o'ziga xos o'rin tutadi. Boshlang'ich o'qish savodxonligi nuqtai nazaridan shuni ta'kidlash kerakki, 2016-yilgi PIRLSda mamlakatlarining yarmidan ko'pida deyarli barcha o'quvchilar (95 foizdan ko'prog'i) fundamental o'qish qobiliyatlarini namoyish etdilar. Bu o'quvchilar matndan g'oyalar va ma'lumotlarni topib takrorlashlari va

to'g'ridan-to'g'ri xulosachi qarishlari kerak edi. 2016-yilgi PIRLS yakunlari bundan 15 yil avvalga qaraganda ko'proq o'quvchilar yaxshi o'qish malakasiga ega bo'lganini ko'rsatdi. PIRLS 2001 natijalaridan beri 10ta davlatdan o'qish savodxonligi o'sishi 2ta davlat bu ko'rsatkich tushishi kuzatilgan. Qiziqarli tomoni PIRLS 2016 natijalarigako'ra 50ta davlatdan 48tasida qiz bolalar o'g'il bolalarga ko'ra yuqori natijalarni ko'rsatgan. 2001-yildan beri qizlar va o'g'il bolalar savodxonligi o'rtasidagi farq qisqarmagan. Qiz bolalar 2001-yilda ham o'qish savodxonligi borasida o'g'il bolalardan o'zib ketgan. Shuni ta'kidlash lozimki, ota-onalarning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabati pasaygan. Buni 2011-yilda 31 mamlakatda va faqat 2 mamlakatda o'qish savodxonligida o'sish kuzatildi. 2016-yilda o'rtacha hisobda atigi 32 foiz o'quvchilarning ota-onalari o'qishni yoqtirishini va 17 foizi o'qishni yoqtirmasliklarini aytishdi. Shu jihatdan turli mamlakatlardagi o'qish savodxonligi borasida yuqori natijalarni ko'rsatgan o'quvchilarning muvafaqqiyatiga aynan qanday omillar ta'sir ko'rsatganligini o'rganish O'zbekiston maktablarida ham yuqori darajadagi o'qish savodxonligiga ega o'quvchilarni kamol toptirishga yordam beradi. Singapurlik to'rtinchi sinf o'quvchilari ePIRLS bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatishgan bo'lsa-da, barcha ishtirokchilar ePIRLSda ham yaxshi o'qiy olishlarini isbotlashdi. O'rtacha hisobda, o'quvchilarning 50 foizi veb-sahifalardan ma'lumotlarni toppish va ularni umumlashtirib, xulosa chiqarishda mukammal darajada bilimlarini ko'rsatishdi.

Hozirgi kunda yurtimizda o'quvchilarni tabiiy fanlarga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirish nazariy ta'lim bilan birgalikda amaliyotni mujassamlashtirgan holatda olib borilishi, tabiatda ro'y berayotgan voqea va hodisalarni, jumladan o'simlik va hayvonlarni tabiiy sharoitida o'zgarish xilma-xilligi ortib borayotgani hamda ba'zi turlarning haddan ziyod kamayib ketishi bu jarayonda antropogen ta'sirning sezilarli darajada ortib borayotganligini ko'rishimiz mumkin, ushbu holatda o'quvchilarni oldindan anglash, fikrlash qobiliyatini rivojlantirib, tabiatga qanday munosabatda bo'lish, har bir o'simlik, hayvon, mikroorganizmlarni foydalilik xususiyatlarini ocha bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni taqozo etadi. O'quvchilarni tabiiy fanlardan fikrlash qobiliyatlarini baholashda PISA dasturida berilgan topshiriqlar bilan tanishtirib borish, shuningdek fan mavzulari bo'yicha PISA topshiriqlarini yangilarini tuzish va uni o'quvchilarga doimo tanishtirib borish, orqali o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatib, ularni kundalik hayotda, tabiiy, noodatiy sharoitlarda ijobiy yechimlarni topishga o'rgatadi.

PIRLS (Progress in International Reading Literasy Study - xalqaro o'qish savodxonligini o'rganishdagi yuksalish)-bu turli mamlakatlarda boshlang'ich sinfda tahsil oluvchi o'quvchi yoshlarning matnni o'qish va tushunush darajalari sifatini baholab beruvchi xalqaro baholash tizimidir. Ushbu sinov turi har 5yilda bir marta o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, 2021-yil uchun mo'ljallangan tadqiqotlarda O'zbekiston o'quvchilari ham ishtirok etishi boshlang'ich ta'lim o'qituvchilariga katta

mas'uliyat yuklaydi. Bu muhim vazifani amalga oshirish o'qituvchidan ta'limga yangicha yondashuvni, faollikni talab etadi. Shu o'rinda o'quvchini xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga qanday tayyorlash mumkun degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. PIRLSga tizimli tayyorlashda sinfdan tashqari o'qish, mustahkamlash, takrorlash darslari hamda to'garaklarning o'rni juda muhim. Bunda o'quvchining dunyoqarashini kengaytirish, mustaqil fikrlashi, obrazli tafakkurini rivojlantirish o'ta muhim hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotda ta'lim sifatiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish va tahlil qilish maqsadida anketa so'rovnomalari ham o'tkaziladi. Jumladan, o'quvchilar so'rovnomasi orqali ishtirokchi haqida ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, maktabga, o'qituvchiga, o'quv faniga munosabat, o'quvchilar o'rtasidagi munosabat, o'quv fanlari bo'yicha o'zini baholash, sinfdan tashqari mashg'ulotlar to'g'risida ma'lumotlar to'planadi. O'qituvchilar so'rovnomasi o'qituvchilar haqidagi ma'lumotlar, maktabning jihozlanishi, xavfsizlik, maktab muhiti, o'qitish usuli, malaka oshirish masalalarini o'z ichiga oladi. Ota-onalar so'rovnomasida ota-onalar haqidagi ma'lumotlar, oiladagi ta'limiy resurslar, farzandini maktabga tayyorlash, maktabga qabul qilinishidan avvalgi ko'nikma va malakalari, ota-onalarning maktabga va o'qishga munosabati o'rganiladi. Maktab ma'muriyati so'rovnomasi orqali maktab quvvati, joylashuvi, jihozlanishi, ta'limiy resurslar, maktabda o'quv jarayonining tashkil etilishi, maktab muhiti o'rganilib, tahlil etiladi. Tadqiqotning 2016 yil natijalariga ko'ra, 50 ta mamlakat ichida, Rossiya, Singapur, Gonkong, Irlandiya va Finlyandiya mamlakatlari yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa, shular orasida rossiyalik va singapurlik o'quvchilar matnni o'qish va tushunish bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatdi. Shuningdek, Rossiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari ushbu mezon bo'yicha dunyoda yetakchilik qildi. PIRLS tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishi ta'lim sifatini oshirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini mustahkamlash bilan birga, o'quvchilar bilimni xalqaro talablar darajasiga olib chiqishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrda 997-sonli qarori.
2. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science, problem solving and financial literacy).
3. "PISA-2018 Kompyuter format xalqaro tadqiqot vositalari": To'plam – "Axborot-tahlil markazi" AQ. Astana. 2016-126 bet.
4. <http://www.tdi.uz/uz>Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi